



THE ROLE OF MUSLIM WOMEN IN THE SOCIO-POLITICAL AND ECONOMIC LIFE OF TURKESTAN (1918-1924)

Yulduz Umarova

Researcher

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Turkistan, muslim women, economy, cultural life, society, bolsheviks, legal protection.

Received: 28.09.24

Accepted: 30.09.24

Published: 02.10.24

Abstract: the beginning of the 20th century coincided with one of the most serious turning points in the history of the Turkestan region. Over the past decades, the processes that have matured in the bosom of the country have appeared on the surface of social life, revealing the deep tension that covers its base. These processes, which arose due to external and internal factors, were not the same in nature, but were holistic in terms of their own destructive effect. Turkestan was on the verge of significant political change in 1917. The peoples of the region incessantly led a national liberation struggle against Russia's 50-year colonial oppression. Jadidism, which initially arose in the politics of the Enlightenment movement, took the field as an ideologically unifying force for the Uzbek people at a time when the fate of Turkestan was being decided.

TURKISTONDA IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY HAYOTIDA MUSULMON AYOLLARNING O'RNI (1918-1924 YY.)

Yulduz Umarova

Tadqiqotchi

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Turkiston, musulmon ayollar, iqtisodiyot, madaniy hayot, jamiyat, bolsheviklar, huquqiy himoya.

Annotatsiya: XX asrning boshlanishi Turkiston o'lkasi tarixida eng jiddiy burilish yuz bergan davrlardan biriga to'g'ri keldi. O'tgan o'n yilliklar mobaynida o'lka bag'rida yetilgan jarayonlar ijtimoiy hayot yuzasiga

qalqib chiqib, uning negizini qamrab olgan chuqur tanglikni oolib tashladi. Tashqi va ichki omillar tufayli vujudga kelgan bu jarayonlar o‘z tabiatiga ko‘ra bir xil emas, lekin o‘zining yemiruvchilik ta’siri jihatidan yaxlit edi. Turkiston 1917-yilda muhim siyosiy o‘zgarish arafasida turar edi. Mintaqalari Rossianing 50 yillik mustamlakachilik zulmiga qarshi tinimsiz ravishda milliy ozodlik kurashini olib bordilar. Dastlab ma’rifatparvarlik harakati siyosatida vujudga kelgan Jadidchilik Turkiston taqdiri hal qilinoyatgan paytda o‘zbek xalqini g‘oyaviy jihatdan birlashtiruvchi kuch sifatida maydonga chiqdi.

РОЛЬ МУСУЛЬМАНОК В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ ТУРКЕСТАНА (1918-1924 ГГ.)

Юлдуз Умарова

Исследователь

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Туркестан, мусульманки, экономика, культурная жизнь, общество, большевики, правовая защита.

Аннотация: Начало XX века совпало с одним из самых серьезных переломов в истории Туркестана. В течение последних десятилетий процессы, происходившие в сердце страны, вышли на поверхность общественной жизни и обнажили ту глубокую напряженность, которая охватывала ее основу. Эти процессы, возникшие вследствие внешних и внутренних факторов, не были тождественными по своей природе, а были комплексными по своему разрушительному действию. В 1917 году Туркестан находился на пороге важных политических перемен. Народы региона неустанно вели национально-освободительную борьбу против 50-летнего колониального гнета России. В то время, когда решалась судьба Туркестана, Джадидчилик, изначально созданный в политике просветительского движения, выступил как идеологически объединяющая сила узбекского народа.

KIRISH

Bugungi kunda barcha davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotni yanada rivojlantirish va jamiyatdagi har bir sohani yuksaltirish maqsadida xotin-qizlarga ham keng

imkoniyatlar hamda barcha shart-sharoitlar yaratilib, hattoki huquqiy jihatdan ham belgilanib qo‘yilmoqda.

ASOSIY QISM

Gender tengligi tamoili - ayollarni jamiyatdagi huquqiy himoyasi asosida barcha sohalarda erkin va faol tarzda ishtirok etishi,shuningdek, o‘z sohasini mutaxasisi sifatida faoliyat yuritishida qo‘llab-quvvatlab kelinmoqda.Yurtimizda ham bunday imkoniyatlar Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [1], “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash,ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi [2], “Oila ava xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [3] qaror-farmonlari natijasida yildan yilga juda ko‘plab o‘zgarishlar bo‘lmoqda.

Xotin-qizlarga bunday imkoniyatlarni yaratib berishning boshlanishi Turkiston ASSRning tashkil topishi va sovet tuzumini o‘rnatish maqsadida qilingan harakatlar natijasida sodir bo‘la boshlagan. “Bolsheviklar o‘lkani keljakda mustaqil, suveren davlat bo‘lib ajralib ketmasligini oldini olish maqsadida Turkiston hududida o‘ziga xos sovet muxtor (avtonom) respublikasi tuzishga kirishdi.1918-yilning 20-apreldidan 1-mayigacha Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston sovetlarining V qurultoyida Turkiston avtonom sovet sotsialistik respublikasi (TASSR) tuzulib,u RSFSR tarkibiga kiritildi”.[4]

Shuningdek, o‘lkada sovet tuzumini o‘rnatishda hattoki xotin-qizlardan foydalanmoqchi bo‘lib,gender tenglik siyosati olib borildi.Bunda barcha xotin-qizlar jamiyatda erkaklar bilan tengligi,ular ham jamiyatning barcha sohalarida faoliyat olib borishi aytilib, sekin-asta sharoitlar yaratila boshlandi.Buni natijasida esa Turkiston ASSR da xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotda ishtiroki sezilarli darajada o‘zgargan.Sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan islohotlar xotin-qizlarning turli sohalarda faoliyat yuritishlariga imkon yaratdi va ularning jamiyatdagi ahamiyatini oshirdi. Ayollar siyosiy partiya va sovet tashkilotlarida faoliyat yuritishi,siyosiy ta’lim va siyosiy faoliyatini amalga oshirish uchun maxsus kurslar hamda seminarlar tashkil etildi.Ijtimoiy hayotda xotin-qizlar ta’lim olishi va sog‘lom turmush tarzini qurushi uchun ham imkoniyatlar berildi.Sababi – sovet hokimiyati o‘zlarining yangi tuzum g‘oyalari ruhida tarbiyalangan va sadoqat bilan xizmat qiladigan kadrlarga ehtiyoji bor edi.”Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Turkistonda oliy ta’limni tashkil etish g‘oyasini,dastavval,o‘lkaning ilg‘or jadid namoyondalari ilgari surganlar.Xususan,ular tashabbusi bilan 1918-yil mayida Toshkentda ilk bor milliy universitet ochilib,u ilmga chanqoq mahalliy yoshlarni o‘z bag‘riga

olgan edi.Biroq har narsada o‘zini ko‘rsatishga intilgan sovetlar yurtparvar jadidlar tashabbusini bo‘g‘ib,1920-yil sentabrida Toshkentda Turkiston Davlat Universiteti tashkil etdilar”.[5]

San’at va madaniyatning turli yo‘nalishlarida ham ayollar faoliyat ko‘rsata boshladilar.Teatr, kino, musiqa va adabiyot sohalarida xotin-qizlar ijodkorlari sifatida tanildi hamda jamiyatda ayollar hattoki, yozuvchi,shoira,artist va musiqachilar sifatida o‘z ijodlarini namoyish etdilar.Bundan tashqari ma’rifiy va madaniy tadbirlarni ham o‘zlarini tashkil etdilar. Shuningdek, xotin-qizlar milliy adabiyot va madaniyatni rivojlantirib, xonadonlarda yirik ta’lim muassasalarini tashkil qilishda ishtirok etdilar.Ular o‘z she’rlari, hikoyalari va maqolalari bilan milliy ongni rivojlantirishga hissa qo‘shdilar.

XULOSA

Sovet hokimiyati o‘zbek xotin-qizlarini ozodlikka chiqarish jarayonida ularni ishlab chiqarishga jalb qilish tadbirlarini ham amalga oshirdi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad xalq xo‘jaligi muammolarini hal qilish uchun yangi mehnat resurslari bo‘lgan ishchi kuchlarini vujudga keltirish edi. • Xotin-qizlar dastlab hunarmandlik kooperatsiyasiga jalb qilindi. Xotin qizlar klublarida ayollar uchun maxsus xonalar ochilib, ular bunday joylarda do‘ppi va choyshablar tikishardi. Keyinchalik, hunarmandchilik kooperatsiyasi tarkibida maxsus ayollar artellari tashkil qilindi. 1926-yili O‘zbekistonda 16 ta yirik ayollar artellari bo‘lib, ularda 814 nafar mahalliy xotin-qizlar mehnat qilardi. Ayollar qilgan mehnatlari evaziga maosh olish imkoniyatiga ega bo‘lishdi

Sovet hukumatining ayollarga qilgan bunday siyosati natijasida gender tengligi siyosatini o‘rnatalishiga olib keldi va oila tuzilmasida bir qancha o‘zgarish bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Hukumat tomonidan ayollarga ijtimoiy yordam va qo‘llab-quvvatlash tizimlarini tashkil etdi, shu jumladan, bolalar bog‘chalari,oshxonalar va uy-joy yordam dasturlari yordamida xotin-qizlarning hayot sifatini yaxshilashga harakat qilindi. Lekin 30-yillarga kelib esa siyosiy repressiya va qatag‘on qilinishiga ham olib keldi.

Xotin-qizlarning ayrimlari o‘zlarining siyosiy faolligi yoki milliy ehtiroslari natijasida qamoqqa olingan, jazoga tortilgan va qatag‘on qilinishiga ham sabab bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.Mirziyoyev “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-son.02.02.2018
2. Sh.Mirziyoyev” Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash,ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5020-son.05.03.2021

3. Sh.Mirziyoyev “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo’llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son.07.03.2022
4. Q.Ergashev,H.Hamidov.O‘zbekiston tarixi.-Toshkent:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2015.-311-b.
5. Q.Usmonov,M.Sodiqov,S.Burxonova.O‘zbekiston tarixi. – Toshkent:IQTISOD-MOLIYA,2006.-318-b.